


## XITOIY VA O‘ZBEK TILLARIDA KAUZATIVLIKNI IFODALANISHI

 <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-21-77-82>

**Turniyozova Mavluda Yangiboyevna**

Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi kafedrası  
1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: DSc,dotsent. **S.A. Xashimova**

**Annotation.** *This article expresses causality in Uzbek and Chinese as well as Uzbek and comparative analysis of the views of scholars who have studied causality in Chinese. Causation is one of the most important and topical issues that should be studied not only in Uzbek but also in Chinese. Comparative study of causality in both languages To make our research more convincing, we used the literature of Russian Chinese scholars and Uzbek linguists and gave examples.*

**Keywords:** Causality, morphological causation 被 bèi, 受 shòu, 挨 ài, 让 ràng .

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada o‘zbek va xitoy tillarida kauzativlikni ifodalanishi shuningdek o‘zbek va xitoy tilida kauzativlini o‘rgangan olimlarning fikrlarini o‘rganilib qiyosiy tahlil qilindi. Kauzativlik nafaqat o‘zbek tilida balki xitoy tilida ham keng o‘rganilishi kerak bo‘lgan muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har ikki tildagi kauzativlikni qiyosiy jihatdan o‘rganish mavzuni yanada tushunarli va aniqroq bo‘lishiga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz ishonchli bo‘lishi uchun biz rus xitoyshunos olimlari va o‘zbek tilshunoslarining adabiyotlaridan foydalandik va misollar keltirdik.*

**Kalit so‘zlar:** *Kauzativlik, morfologik kauzatsiya, 被 bèi, 受 shòu, 挨 ài, 让 ràng .*

Hozirgi kunda tilshunoslikda *kauzativlik, kauzativ fe‘l* kabi tushunchalarning o‘rganilishi yangilik emas, albatta. Bu haqda tilshunos olimlardan L.Tenyer, Y.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, G.A.Zolotova, A.P.Chudi-nov, T.K.Abdiyev, A.M.Amatov va boshqalar tadqiqot ishlarida fikr va mulohazalarini atroflicha bayon etib o‘tganlar. Shuningdek, o‘zbek tilshunos olimlari ham kauzativlik, kauzativ, kauzativ fe‘l, morfologik kauzatsiya, sintaktik kauzatsiyalar to‘g‘risida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar, hamda, o‘zlarining fikr va mulohazalarini bayon etishgan. Xususan, Irisqulov M , Abduazizov A , Sapayev Q , Sa‘dullayeva L, Turniyozov N, Turniyozov B kabi tilshunos olimlarning tadqiqot ishlari orqali ko‘rishimiz mumkin. Biz ham ushbu maqolada kauzativlikning o‘zbek va xitoy tillarida o‘rganilish holati bilan tanishib, shu bilan birga, o‘z ilmiy nuqtayi nazarimizni yoritib bermoqchimiz.

Jahon tilshunosligida kauzativlikni morfologik kauzatsiya, analitik kauzatsiya, leksik kauzatsiya, semantik kauzatsiya kabi turlarga bo‘lib o‘rganilmoqda<sup>1</sup>.

Kauzatsiya lotincha *causa* “sabab”, inglizcha causative, reason, “sabab” ma’nosini ifodalaydi. Bu rasmiy va semantik nuqtai nazardan muntazam bo‘lgan so‘z yasash modeli. Ana shu model yordamida asl fe‘ldan hosila fe‘l yasaladi, ular nomlangan harakatni amalga oshirish ma’nosini bildiradi. Yasama va asl fe‘llar o‘rtasidagi semantik munosabatlar sabab munosabatlarini ifodalaydi<sup>2</sup>. Ya’ni, tilshunoslikda kauzativlik aynan shu jihatdan o‘rganiladi hamda kauzativ fe‘lning asosiy semasi sifatida sabab ma’nosi bilan bog‘lanadi. Ayrim, ishlarda kauzativlik tushunchasi fe‘lning orttirma darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, asosan, morfologik nuqtayi nazardan tekshirilgan va kauzativlikda bajaruvchining ta’siri bilan boshqa shaxs tomonidan bajarilgan harakat mavjudligi haqida fikr bildirib o‘tilgan. Morfologik kauzatsiya tadqiq qilingan ko‘pgina ishlarda kauzativlikning bu turi maxsus qo‘shimchalar bilan, ya’ni fe‘lning orttirma nisbati shakllari bilan, hosil bo‘lishi nazarda tutiladi. O‘zbek tili tilshunosligida esa orttirma nisbat qo‘shimchalari orqali kauzativlikni hosil bo‘lishiga doir misollar keltirib o‘tamiz<sup>3</sup>.

a ) fe'l negiziga -t affiksini qo‘shish bilan : qisqar -t , boyi –t.

b ) fe'l negiziga -tir ( -dir ) affikslarini qo‘shish bilan : kel - tir , chaqir - tir , kul - dir , buz – dir.

v ) sh , ch , t , undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga -ir affiksini qo‘shish bilan : shosh - ir , ich - ir , bot - ir

g ) oxiri undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli fe'l negizlariga -ar affiksini qo‘shish bilan : chiq - ar , qayt - ar .

d ) oxiri undosh bilan tugagan fe'l negizlariga -giz , -giz , -qaz , -gaz , -kaz , -qiz , -kiz affikslarini qo‘shish bilan : tur - giz , eg - iz , o‘t - kaz , qut - qaz , yut - qiz , et - kiz

e ) oxiri m , q undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga -iz affiksini qo‘shish bilan : tom - iz , oq - iz , boq - iz .

y ) fe'l negiziga -sat ( -sa + -t qo‘shma affiksi ) affiksini qo‘shish bilan : ko‘rsat ( faqat ko‘r fe'l negiziga qo‘shiladi ) kabi.

Bizning fikrimizcha, kauzatsiyani faqat sabab ma’nosi bilan cheklashgina to‘g‘ri emas. Agar kauzativlikda bir shaxsning ta’siri bilan boshqa shaxs tomonidan bajariladigan harakat mavjudligini e’tiborga olsak, u holda uni maqsad, shart, natija

<sup>1</sup> Turniyozov B. N. Morfologik kauzatsiya haqida . – Ilmiy axborotnoma, 2019

<sup>2</sup> Дадужева Е. А. Общая характеристика каузативных глаголов//Вестник СибГУТИ, № 2, 2011.

<sup>3</sup> Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1992

ma'nolari bilan ham mushtarak ekanligining guvohi bo'lamiz. Garchand, bir shaxsning (bajaruvchining) ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat orqali faqatgina sabab ma'nosi ifodalanmaydi. Bu haqda I. A. Shoroxova o'zining fikrini bildirib o'tadi, kuzativlik tushunchasi «bahona», «asoslash», «undash», «holat», «munosabat», «daraja» kabi ma'nolarni ifodalashini ham ta'kidlaydi. Shundan asosan aytishimiz lozimki, kuzativlikni hali o'rganishimiz kerak bo'lgan jihatlari ko'p ekan.

Tilshunoslikda kuzativlikni grammatik kategoriya sifatida ham talqin qilinadi. Uning asosiy sabablaridan biri esa, fe'ning orttirma nisbati shakli bilan bog'langanligida bo'lishi mumkin. Nisbat tushunchasi haqiqatda fe'ning asosiy grammatik ko'rsatkichlaridan biridir ammo, kuzativlik faqatgina nisbat kategoriyasi orqali ifodalanmaydi. Shu sababli, kuzativlikning morfologik, analitik, leksik, semantik turlari tilshunoslikda bo'lib o'rganilmoqda<sup>4</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, kuzativlikni nafaqat orttirma nisbat shakllari bilan balki majhul nisbat shakllari bilan ham bog'lab o'rganishimiz mumkin deb o'ylaymiz va xitoy tilidagi kuzativlikni hosil qiluvchi misollar orqali ko'rib chiqamiz. Xitoy tilida kuzativlikni biz 让 ràng, 叫 jiào, 使 shǐ, 被 bèi, 请 qǐng, kabi so'zlar bilan ifodalaymiz<sup>5</sup>. Misol uchun:

他让人大了。Tā ràng rén dàle.

U kimdir tomonidan kaltaklandi.

她不听话。你叫我怎么办？Tā bù tīnghuà, nǐ jiào zěnme bàn?

U eshitmaydi. Meni nima qilishni hohlardingiz?

经历危机使很多公司倒闭了，也使很多人失去了工作。Jīnglì wéijī shì hěnduō gōngsī dǎobile, yěshì hěnduō rén shīqùle gōngzuò

Moliyaviy inqiroz ko'plab kompaniyalarning ishdan chiqishiga sabab bo'ldi va ko'plab odamlar ishsiz qoldi.

钱都被人偷走了。Qián dōu bèi rén tōu zǒule.

Hamma pul o'g'irlandi.

我想请你帮我一个忙。Wǒ xiǎng qǐng nǐ bāng wǒ yīgè máng.

Men sizdan menga yaxshilik qilishingizni so'ramoqchiman.

Albatta, ba'zida biz aktiv yoki passiv konstruksiyali gaplarni matnning shartlaridan kelib chiqqan holda tanlaymiz. Masalan:

<sup>4</sup> Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalishi va morfologiya). –T.: TDPU, 2009

<sup>5</sup> 游舒“被××”结构的新用法及语义槽的生成 [期刊论文]-现代语文(学术综合)2012.

他打了你 tā dǎle nǐ.

U seni urdi

你被他打了 nǐ bèi tā dǎ le.

Sen u tarafidan urilding.

人们让我们欺负。Rénmen ràng wǒmen qīfùle

Odamlar bizni xafa qilishdi.

我们被人欺负了 Wǒmen bèi rén qī fù le

Biz odamlar tomonidan xafa qilindik.

使 shǐ va 让 ràng causative fe'1 sifatida ishlatilganda, asosan ma'nosi bir xil ingliz tilidagi “make” yoki “let”, “qilmoq”, “ruxsat bermoq” ma'nosida ishlatiladi. Ammo, 使 shǐ kimnidir yoki biror narsaning natijasini amalga oshirishga yordam berishini bildiradi va juda ham muloyimlikni xushmomilalikni ifodalaydi. Ko'proq rasmiy va yozma tilda ishlatiladi.

让 ràng, 叫 jiào esa ko'proq og'zaki tilda qo'llaniladi va xitoy tilida tez tez ishlatiladigan so'zlar hisoblanadi. Bular oila va siz bilan yaqin munosabatda bo'lganlar uchun ishlatiladi.

请 qǐng bu odamlarga ishlarni qilishning eng xushmuomala usulidir, shuning uchun siz hamkasblaringiz yoki siz bilmagan yoki unchalik yaxshi bilmagan odam bilan gaplashayotganda undan foydalanishni xohlashingiz mumkin<sup>6</sup>.

Xitoy tilida kauzativlikni tuzilmasi quydagicha ifodalashimiz mumkin.

Ega + kauzative fe'1 + ot/ olmosh + kesm + to'ldiruvchi

Masalan :

小王请我把这份文件交给总经理。Xiǎo Wáng qǐng wǒ bǎ zhè fèn wénjiàn jiāo gěi zǒng jīnglǐ

Xiao Wang mendan ushbu hujjatni bosh menejerga berishimni so'radi.

学习使人进步。Xuéxí shǐ rén jìnbù.

O'qish insonga oldinga borishga yordam beradi.

爸爸让我哥哥去买报纸。Bàba ràng wǒ gēgē qù mǎi bàozhǐ.

Dadam akamdan gazeta sotib olishni iltimos qildi.

爷爷叫我好好学习。Yéyé jiào wǒ hǎo hào xuéxí.

Bobom menga qattiq o'qishimni aytdi.

Kauzativli gaplar 被 bèi old ko'makchisi bilan ham ifodalanadi. Mazkur turdagi gaplarda kesim fe'1 bilan ifodalanadi va bunda 被 bèi passivlikni ifodalovchi

<sup>6</sup>樊友新从“被就业”看“被”的语用功能[期刊论文]-合肥师范学院学报2010

marker sifatida qo‘llaniladi. 被 bèi old ko‘makchisi bilan birgalikda quyidagi fe’llarni birga qo‘llab bo‘lmaydi: bog‘lovchi fe’llar; yordamchi fe’llar; mavhum fe’llar; hishayajonni ifodalovchi fe’llar; o‘timsiz fe’llar; harakatsiz mavhum fe’llar. 被 bèi old ko‘makchisi ishtirok etgan gapning fe’l kesimi odatda ikki bo‘lakli murakkab fe’llardan tashkil topgan bo‘ladi. 被 bèi gaplar ko‘p hollarda jarayonning noodatiy tarzda amalga oshganini ifodalab keladi. Inkori ravishlari va modal fellar 被 bèidan oldin ishlatiladi. Kauzativ nisbatli gaplarning inkori shakli 没 mei inkori ravishi bilan ifodalanadi, gap oxiriga xarakterning tugallangan shaklini ko‘rsatuvchi 了 le qo‘yilmaydi.

被 bèi old ko‘makchisi bilan yasalgan gap tuzilishi quyidagicha:

Ega + 被 + to‘ldiruvchi + fe’l + le .

Masalan:

我被他骗了。 Wǒ bèi tā piàn le.

Men u tomonidan aldandim.

他被父母骂了。 Tā bèi fùmǔ mà le.

Unga ota – onasi tomonidan tanbeh berildi.

Bugungi maqolamizda o‘zbek va xitoy tilida kauzativlik va ular orasidagi farqlar hamda tafavutlarni oz bo‘lsada ochib berishga harakat qildik. O‘ylaymizki, kauzativlik haqida hali amalga oshirilmagan ishlar nafaqat o‘zbek tilida balki xitoy tilida ham juda ko‘p. Bizga ma’lumki, kauzativlikni semantik, morfologik, sentaktik kabi turlari mavjud bo‘lib, keyingi tadqiqot ishlarimizda, xitoy va o‘zbek tillarida semantik kauzatsiya, morfologik, kauzatsiya, sintaktik kauzatsiyani xitoy tilidagi kauzativlikni hosil qiluvchi qo‘shimchalar orqali yoritib beramiz.

## REFERENCES

1. Абдиев Т. К. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. – Бишкек, 2009; Ааматов А. М. Морфологические каузативы в английском языке//Ярославский педагогический вестник, 2003, №1.
2. Дадуева Е. А. Общая характеристика каузативных глаголов//Вестник СибГУТИ, № 2, 2011.
3. Длугош А. М. Английский аналитический каузатив со служебным глаголом
4. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili (morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya). –T.: TDPU, 2009
5. Turniyozov B. N. Morfologik kauzatsiya haqida . – Ilmiy axborotnoma, 2019
6. 樊友新从"被就业"看"被"的语用功能 [期刊论文] -合肥师范学院学报 2010.

7. 游舒“被××”结构的新用法及语义槽的生成 [期刊论文] -现代语文（学术综合）2012.
8. Каримов, А. (2010). Actual questions of China studying: Philology, philosophy, politics, economy and history.
9. Karimov, A., & Khasanova, F. The Impact of Ancient Chinese on Baihua Language.
10. Назарова, С. А. (2020). Современное состояние обучения китайскому языку: изучение и обобщение опыта преподавателей китайского языка. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 13-21.
11. Артикова, З. З. (2021). LEXICO FEATURES OF THE PIECE COUNTING WORD 把 ВЃ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-8), 113-118.